

VOLEYBOL O'QITUVCHISINING KO'NIKMALARI VA USLUBI

*Maktabgacha va boshlang'ich ta'limda jismoniy tarbiya va sport yo'nalishi o'qituvchisi
Shomirzayeva Nasiba Xoshimovna*

*Maktabgacha va boshlang'ich ta'limda jismoniy tarbiya va sport yo'nalishi 550-21 guruh talabasi
Merajov Sirojiddin*

***Annotatsiya:** Hozirgi paytda murabbiy shaxsiga birlamchi e'tibor qaratilishi lozim, chunki murabbiy sportchini tayyorlashda asosiy shaxsdir. Biz ushbu maqolada murabbiy - o'qituvchi tomonidan professional majburiyatlarini bajarishi haqida ma'lumot berib o'tamiz. Bundan tashqari, ushbu maqolada murabbiy yetarli tajriba va bilimga ega bo'lishining tamoyillarini izohlashga ham e'tibor qaratilgan.*

***Kalit so'zlar:** perseptiv imkoniyatlar, pedagogik yondashuv, shaxs, jamiyat, murabbiy*

Murabbiy faoliyati ko'p tomonlama tavsifga ega va uning alohida funksiyalarga bo'linishi shartli bo'ladi, masalan sportchi madaniyatini tarbiyalash, o'quv - mashg'ulotlari, tashkiliy va boshqa funksiyalar shular jumlasidandir. Pedagogik imkoniyatlar tuzilmasiga quyidagi turlar kiradi. Perseptiv imkoniyatlar sirasiga pedagogik kuzatuv kirib, u o'quvchilar ichki dunyosiga nazar solish, uning holati va o'ylarini tushunish, shaxsiyati o'zgarishi tendensiyalarini ko'rish, ijobiy sifatlarini baholash va maksimal darajada ularni tarbiya jarayonida qo'llash, uning qiziqishlarini aniqlash, uning uchun hurmatli bo'lgan shaxslarni aniqlash va pedagogik jarayonda ularning ta'sirini qo'llash imkoniyatini beradi. Pedagogik yo'naltirilgan e'tibor yosh sportchilar bilan ishlash uchun muhim bo'lgan faktlarni saralash, shogirdning har -bir harakatdagi pedagogik holatni ko'rishga qaratiladi. Tarqatilgan e'tibor har bir alohida shogird va guruhni diqqat e'tiboridan qochirmaslik imkoniyatini berib, buni individual ish bilan aralastirmaslik imkoniyatini beradi. Konstruktiv imkoniyatlar yosh sportchilar guruhi va shaxsi shakillantirilishi va loyihalashtirilishi uchun asosiy shartdir. Ularga ko'ra murabbiy faoliyati natijalarini oldindan bashorat qila olish, pedagogik holatlarda shogird harakatlarini oldindan tahlil etish imkoniyatini beradi. Buning asosida pedagogik tasavvuri yo'nalishi va

aqil pedagogik salohiyati yotadi. Konstruktiv imkoniyatlar murabbiylarga pedagogik holatni tahlil etish va har bir alohida holatlar to'g'ri bo'lgan guruh va shaxsga ta'sir etish uslubini aniqlash imkoniyatini beradi. Didaktik imkoniyatlar izhor etilayotgan materiallarni yetarli darajada tushunarli etib uzatish, ya'ni muvofiq tarzda shogirdlar shaxslariga yo'naltirish, ularning e'tiborini tortish, mashg'ulotlarida apatiyani yengish imkoniyatini beruvchi usullar yig'indisidir. Mazkur imkoniyatlar yosh sportchilarga bilim berish usullarini doimiy ravishda rivojlantirish, mashg'ulotlarini ijodiy o'tkazish imkoniyatini beradi. Ekspressiv imkoniyatlar nutq, mimika va pantomima yordamida hissiyotlar, fikrlar, bilimlar izhor etilishida pedagogik nuqtai nazarda effektiv ravishda namoyon bo'ladi. Murabbiylar nutqi ichki kuch va ishonch bilan farqlanishi lozim. Katta ahamiyatga nutq madaniyati, yaxshi diksiya, jumlar emotsional, ammo aniq qurilishi, stilistik va grammatik xatolar mavjud bo'lmasligi, ravon gapira olish xususiyatiga ega bo'lishi. Mimika va ishoralar nutqni jonlantiradi, uni emotsional jihatdan to'laroq qiladi. Murabbiy o'z nutqini yumor, hazillar bilan boyitishi lozim [1]. Kommunikativ imkoniyatlar, murabbiy va shogird bilan yaxshi muloqot o'rnatish imkoniyatini beradi. Murabbiy kommunikativligi uning pedagogik taktida, yosh sportchilar bilan yoki ularning orasida konfliktarni bartaraf eta olishda yorqin nomoyon bo'ladi. Kommunikativ imkoniyatlarda katta ahamiyatga empatiya, ya'ni boshqa shaxslar xissiyotlariga javob bera olishga ega. Kommunikativ imkoniyatlar nafaqat yosh sportchilar bilan muloqotda, balki bolalar sport guruhlarini bilan tarbiyaviy ishga jalb etilgan boshqa shaxslar orasida kuzatiladi. Tashkiliy imkoniyatlar, murabbiyda yosh sportchilar hayotini, o'qish, mehnat, dam olish, jamoa ichidagi munosabatlarni o'rnatishni tashkillashtirish sifatida nomoyon bo'ladi. Ular sirasiga holatni baholay olish va ularning bajarilishini nazorat qila olish va shaxsiy sifatleri qator kompleksiga bog'liq (fikrlash tezligi va mantig'i, ustamonlik, chiniqish, talabchanlik, o'smirlar tarbiyasi uchun ma'suliyat). Akademik imkoniyatlar (ilmiy tadqiqotlarga imkoniyatlar, shaxsiy tajriba umumlashtirilishi) murabbiy uchun psixologiya va pedagogika sohasida doimiy tajriba orttirish, faoliyatiga ishning ilmiy-tadqiqot uslublarini tadbiiq etish uchun zarur. Mazkur klassifikatsiyadan kelib chiqqan holda, murabbiy qator quyidagi

funksiyalarni bajaradi: Kommunikativ funksiyalar. Murabbiy o'z shogirdlari, ularning qiziqishlari, imkoniyati, xarakteri, otaonasining bolalar sporti bilan shug'illanishga munosabatini bilish kerak; shogirdlari bilan umumiy til topa olish, sportchi ma'naviy ko'rinishi haqida maxsus suxbatlar o'tkazish, umumta'lim maktabi, institut, ishlab chiqarish, oila bilan aloqada bo'lishi, madaniy, ommabop ishlarini amalga oshirish, doimiy ravishda e'tiborni sportchiga qaratish. Tashkiliy funksiyalar. Bir necha yo'nalishga bo'linadi: saralash funksiyalari, o'quv -mashg'ulot funksiyalari, rejalashtirish funksiyalari, o'quv - mashg'ulot jarayoni ustidan nazorat, hakamlk va sekudantlik. Saralash funksiyalari tarkibiga quydagi bilimlarni oladi: organizim rivojlanishi asosiy qonuniyatlari -marfalogik, fizalogik, ruhiy, jismoniy; sportchi model tavsiflari; saralash prinsipi vositalari, formalari va saralash usullari; erta ixtisoslashtirish boshlanishi paytda. [2] Shu bilan birgalikda birgalikda quyidagilarni ham bajara olish lozim: sport natijalarini oldindan bilish va tahlil etish olish; boshlang'ch tayyorgarlik guruhlariga salohiyatli bolalarni saralash; o'quv-mashg'ulot guruhlarini, sportni rivojlantirilishi guruhiga bolalarni saralash usullaridan foydalanish. Murabbiy o'quv mashg'ulot funksiyalari o'qtish va rivojlantirish prinsiplari, vositalari, formalari va uslublarini nazarda tutadi; maxsus atamalarni bilish; shogirdning maxsus imkoniyatlarini, xarakteri, intellektual darajasi ijodiy fikrlash darajasini aniqlash, mashg'ulot ishlarini bajarishga nisbatan munosabat. Murabbiy ratsional texnika va taktikani o'rgata bilish; sportchining jismoniy, ruhiy holatini shakillantirib rivojlanganlik darajasini aniqlay olish kerak. Rejalashtirish funksiyalari effektivligi tayyorgarlik maqsadi haqida bilim, uning bosqich va davrlari maqsad vazifalari yechilishi uchun mos bo'lgan vosita va usullarini belgilash imkoniyatini beradi. O'quv - mashg'ulot jarayoni ustidan nazorat funksiyasi sportdagi boshqarish va nazorat vositasi va usullari qo'llanilishini ko'zda tutadi. [3] Hakamlk funksiyasi musobaqa qoidalarini bilish va zaruriy paytda hakamlk ishining istalgan bosqichda hakamlk majburiyatini bajarishda nomoyon bo'ladi. Sekundantlik funksiyasi, murabbiy tomonidan shogirdlarni, ularning salbiy va ijobiy xususiyatlarini, emotsional holatning tashqi ko'rinishlarini, startdan oldingi turli ruhiy holatlar belgilarini va ularni boshqarish usullarini yaxshi bilishda

nomoyon bo'ladi. Ilmiy tadqiqot funksiyasi tadqiqot vosita va usullari to'g'ri qo'llanilishi; olingan ma'lumotlarni fan va texnika yutuqlaridan foydalangan holda qayta ishlashni ko'zda tutadi. Ginostik funksiyalar. O'z professional majburiyatlarni amalga oshirish uchun murabbiy muayyan pedagogic imkoniyatlarga ega bo'lishi, bu imkoniyatlar uning shaxsiy xususiyatlari orttirilgan bilim va tajribasi tomonidan belgilanishi lozim.[4]

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Bergot. Volleyball of the highest level. Moskva, 2007.
2. Belyaev A.V. Training in the technique of playing volleyball and its improvement. Moskva, 2008.
3. Volkov L.P. Theory and methodology of children and youth sports. Kiev, 2002.
4. -Godik M.A. Physical training of football players. Moskva, 2006.
5. Gari pov A.T., Kleshev Yu.Yu., Fomin E.V. Speed power training young volleyball players. Moskva, 2009.